

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ismoiljonova Mohigul Hikmatillo qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Aldashev Ilhomjon To'xtaboyevich

Farg'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish qanchalik muhim ekanligini bilib olishingiz mumkin. Bilasiz, ayni paytda IT sohasi ham rivojlanib bormoqda. Dars mashg'ulotlarida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali dars sifati va yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarini oshirish, yangiliklarni kashf qilish uchun turtkilar tadqiq qilinadi.*

Kalit so'zlar: *AKT, ta'lim tizimi, IT, yangiliklar, multimedia.*

Annotation: *In this article, find out how important it is to use information technology in the education system. You know, at the same time, the IT sector is also developing. By using information technologies in the lesson, it is being studied to increase the quality of the lesson and the interest of students in the field of IT and also incentives to discover news.*

Keywords: *ICT, education system, IT, news, multimedia.*

KIRISH

Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonimizda ta'lim sifatini oshirish uchun qanchadan qancha sa'y-harakatlar olib borilayotgani hammamizga oydek ravshan. Sezilayotgan bo'lsa, faqatgina ma'ruzaga asoslangan darslarning ham vaqti asta-sekin o'tib boryapti, deyarli o'tib ham bo'ldi. Bunga sabab, axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda ommalashib, rivojlanib borishidir. Axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, turli xil foydali metodlar bilan ishlanmasa o'quvchini e'tiborini tortish, fikrini bir joyga jamlash ancha qiyin masaladir. Bunday holda darslarni o'yinlar bilan o'tkazishni amalga tadbiiq qilish darkor va bu usul sezilarli samara beradi. O'yinlarni o'quvchilarni yoshiga va psixologiyasiga moslab tanlanishi ma'qul. Buning uchun, albatta, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiya bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida hayotimizga kirib keldi. Multimedia o'zi nima? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil tahlil qilishmoqda. Bizningcha multimedia bu kompyuterning matn, grafik, tovushli va video ma'lumotlar bilan ishlashga imkon

beruvchi qurilmasidir. Ana shunday qurilma o'rnatilgan kompyuter **multimedia kompyuter** deyiladi. Hozirgi kunda multimedia vositali orqali o'quvchilarni o'qitishning ancha afzalliklari mavjud. Buning natijasida vaqtni tejash va ma'lumotlar bazasi o'quvchilar xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qolishini kuzatish mumkin. Agar o'quvchilar ma'lumotlarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% gacha oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida taqdim qilinsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% gacha ortadi.

Darslarda ham yangi ma'lumotlarni yetkazishdan oldin pedagog o'quvchilarning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slaydlar, multimediya tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustahkamlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Darsda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini asosiy elemenlaridan biri, o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, hayotda albatta yetuklikka yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarida foydalanishning afzalliklari:

- Dars jarayonida o'quvchilarga taqdim qilinayotgan o'quv materiallarini takroriy namoyish qilish imkoniyati mavjudligi
- Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyatining mavjudligi
- Ta'lim oluvchilar o'zlashtirish darajasining yuqori bo'lishligi;
- Ta'lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqa imkoniyatlarni mavjudligi;
- O'quv materiallardan ommaviy tarzda foydalanish ya'ni, tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir necha auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

- Masofaviy o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish;

Axborotlashgan jamiyat ehtiyojini qondiruvchi zamonaviy darslik – axborot-ta'lim muhitining asosi sifatida uning tamal toshidir. Odatdagi qog'oz variantidagi darslik bilan unga asoslangan elektron versiyadan birgalikda foydalanish hozirgi zamon uchun odatiy hol hisoblanadi. Bundan shu aniqki, elektron shaklda ham, bosma variantdagi nashr muhim emas, muhimi qanday shaklda bo'lmasin kerakli majmualar, mashqlar to'plamlari, tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmua bo'lishi mumkin.

Innovatsiya – texnikaviy yangiliklar, texnologiyalar, fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni joriy etish, ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni qayta qurish jarayoni. Mamlakatimizda to'plangan yangi texnologiyalar boy tajribaga tayangan holda ularni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, o'zimizning zamonaviy pedagogic

texnologiyalarimizni yaratish bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlarni birgalikda olib borish zarur. O'zimizning zamonaviy pedagogik texnologiyalarimiz bilan "Innovatsion maktablar" tizimini yaratishga o'tishimiz kerak. Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv o'quvchilarda yangi tajriba orttirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni anglash, kelajakka intilishni tarbiyalash uchun zarurdir.

Xalqaro ta'lim texnologiyalari jamiyati (ISTE) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda talab yuqori bo'lgan ko'plab ish o'rinlari so'nggi o'n yil ichida yaratilgan. Texnologiyalarni rivojlanishi glaballashuv va raqamli transformatsiya kuchaytirishi bilan o'qituvchilar talabalarga kelajakdagi kareralarda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikmalarni egallashga yordam berishlari mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o'qitish sifatini oshirish o'qituvchidan keng ko'lamlil bilim va malakalarni talab qilmoqda. Chunki bugungi kunda talabalar ham zamonaviy texnologiyalar bo'yicha ma'lum darajada bilimga ega. O'quvchilar AKT asoslarini o'qituvchidan bilim olishi bilan birga atrof-muhit haqidagi bilimlarini o'zlashtirgani yaxshi, deb o'ylayman. Shu bois, bugungi kunda o'qituvchilarning AKT va innovatsion texnologik ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirish zarurati paydo bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga jiry etishdan maqsad o'quvchilarni zamonaviy axborot va texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish, bu boradagi savodxonligini oshirish, eng muhimi, ushbu ma'lumotlardan foydalanish malakasini oshirishdan iborat. AKT imkoniyatlarini joriy etish zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligi va jozibadorligini oshiradi. O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish muhimligini ta'kidlar ekanmiz, ulardan foydalanish qoidalarini ham unutmashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. XOLMATOV T., Taylaqov N.; Informatika va hisoblash texnikasi Toshkent, 2001.
2. Mengliyev. Sh. EHM larning rivojlanish tarixi 2014.
3. Sun'iy idrokning kelajakka ta'siri: uning insoniyat hayotidagi ahamiyati Z Sidiqova, I Aldashev - Научный Фокус, 2023
4. Boshlang 'ich sinf ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanish M Odiljonova, A Ilhomjon - Научный Фокус, 2023
5. AKT rivojlangan davrda ta'lim boshqaruvida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullari. A Ilhomjon - Научный Фокус, 2023
6. Zamonaviy texnologiyalarning hozirgi kundagi ahamiyati A Ilhomjon, A Gulira'no - Научный Фокус, 2023
7. Turli sohalarda axborot texnologiyalarining tutgan roli. S Madinabonu, A Ilhomjon - Научный Фокус, 2023
8. Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni o'rni. M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023

9. Boshlang'ich Ta'lim Jarayonida Axborot Texnologiyalarning O'rnini A'lbom,
T Toxirjon - Miasto Przyszłości, 2022

10. Dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rnini. I
Aldashev, S Aldasheva - ... AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF ..., 2022

11. Shermatova, X.M. & Komilova, Z.X. (2022). Axborot kommunikatsion
texnologiyalar va ta'lim jarayonlarini modellashtirish. 228 b.

12. Mirzaakbarov, D. D. (2021). Directions for the introduction of new
information technologies in education. Экономика и социум, (4-1 (83)), 211-214.

13. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW
INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-
214.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI:

1. <http://fer-teach.uz>
2. <http://www.in-academy.uz>